

‘ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA O’S MIR SHAXSNING PSIXOLOGIK SHAKLLANISH XUSUSIYATI’

Sharafullayeva Shaxlo Qaxramonovna

Termiz davlat Universiteti

Psixologiya kaferdirasi, O’qituvchisi

Mamatraimova Ilmira Bahrom qizi

Amaliy psixologiya ta’lim yo’nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17529010>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada zamonaviy texnologiyalar - internet , ijtimoiy tarmoqlar , kompyuter o’yinlari va raqamli vositalarning o’smir shaxsning psixologik shakllanish jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi . Raqamli muhitda o’sayotgan o’smirlarning tafakkuri , hissiyoti , o’zini anglash darajasi va ijtimoiy munosabatlari yangi shakllarga ega bo’layotgani ilmiy asosda yoritilgan . Tadqiqotda zamonaviy texnologiyalar o’smir shaxsning kognitiv (bilish), emotsional va ijtimoiy ruvojlantirishga ijobiy hamda salbiy jihatdan ta’sir ko’rsatayotgani ko’rsatib beriladi. Shuningdek, oila va ta’lim muhitining raqamli texnologiyalar bilan uyg’unlashuvi o’smir shaxsning sog’lom psixologik rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil sifatida ko’rsatiladi.

Kalit so’zi: o’smirlik davri , raqamli texnologiyalar , shaxs rivojlanishi , ijtimoiy tarmoqlar, raqamlimli madaniyat , psixologik shakllanish .

Kirish. O’smirlik davri , inson hayotining eng muhim murakkab , shu bilan birga eng muhim bosqichlaridan biridir . Bu davrda shaxs o’zini anglaydi, mustaqil fikrlay boshlaydi , jamiyatda o’z o’rnini topishga harakat qiladi . O’zbekiston sharoitida o’smir shaxsning psixologik rivojlanishi nafaqat biologik omillar , balki oila muhiti , milliy qadriyatlar, diniy va madaniy an’analar bilan chambarchas bog’liq .

E.G’oziyev, L.S.Vgotiskiy, J.Piaget kabi olimlar fikricha , o’smirlar _bu ‘o’tish davri inqirozi’, ya’ni bola oilaviy munosabatlar, tarbiya uslublari va madaniy qadriyatlarning o’rni alohida ilmiy ahamiyatga ega. XXI asrda inson hayotining barcha sohalariga axborot texnologiyalari chuqur kirib kelmoqda. Ayniqsa, yosh avlod _ o’smirlar hayoti internet , ijtimoiy tarmoqlar va raqamli vositalarsiz tasavvur etib bo’lmaydigan darajaga yetdi . Shu bilan birga, bu holat o’smir shaxsning psixologik shakllanish jarayoniga yangi talab va xavfalarni keltirib chiqarmoqda.

O’smirlik davri insonning o’zi ‘Men’ ini angalash , mustaqil fikrlash , ijtimoiy o’rnini topish bosqichidir . Zamonaviy texnologiyalar esa bu jarayonni osonlashtiruvchi hamda murakkablashtiruvchi omil bo’lishi mumkin . Bir tomondan , raqamli muhit o’smirlarda tafakkur kengayishi, bilim olish imkoniyatlari va ijodiy faollikni oshiradi; ikkinchi tomondan esa _virtual dunyoga qaramlik , hissiy beqarorlik , o’zini real hayotdan esa _virtual dunyoga qaramlik , hissiy beqarorlik , o’zini real hayotdan ajratish kabi muommolarni yuzaga keltiradi.

Shu sababli, zamonaviy psixologiyada o’smir shaxsning raqamli muhitda shakllanish xususiyatlarini o’rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. E.G’oziyev , L.S. Vygotskiy, J. Piaget va zamonaviy tadqiqotchilar (Prenskiy, Turkle, Valkenburg) asarlarida raqamli avlodning psixologik rivojlanish dinamikasi keng tahlil etilgan.

Ushbu maqolada O’zbekiston sharoitida zamonaviy texnologiyalar o’smir shaxsning psixologik rivojlanishiga ko’rsatayotgan ta’siri , ijobiy va salbiy jihatlari , hamda bu jarayonni boshqarishning pedagogik va psixologik yo’llari yoritiladi .

Undan tashqari Eriksonning shaxs rivojlanishida psixoiqtimoiy nazariyasida shaxs va ro'l chalkashligi bosqichi 12 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan davrda bo'lib o'tadi, shuningdek o'zligini aniqlash uchun muhim hisoblanadi. Bola kelajakda qanday kasb egasi bo'lishi, kim bilan aloqa qilishi uchun javob topadigan bosqich ham aynan shu bosqich hisoblanadi. Bu bosqichni muvaffaqiyatli yakun topishi uchun ota-onasining farzandiga ko'proq e'tibor qaratishi, uni qo'llab - quvvatlashi, mexr bilan tarbiyalashi maqsadga muvofiq bo'lar edi. E'tiborsizlik natijasida farzand o'zligini anglay olmasligi, nima xoxlashini bilmasligi kabi hislar yuzaga kelishi mumkin.

Asosiy qism

1 O'smirlik davrining psixologik xususiyatlari

O'smirlik (11-16 yosh) _ shaxs rivojlanishining o'tish bosqichi bo'lib, bu davrda fiziologik o'sish, emotsional beqarorlik, mustaqillikka intilish va ijtimoiy faollik kuchayadi. O'mirlikda 'Men' konsepsiyasi shakllanadi, o'z fikrini himoya qilish istagi paydo bo'adi.

E. G.G'oziyev fikricha, o'smirlik _ 'o'zini shaxs sifatida kashf etish' bosqichidir. Aynan shu jarayonda tashqi omillar, xususan texnologiyalar, o'smirning shaxsiy o'ziga xosligini belgilaydi.

2 Texnologiyalarning o'smir shaxsiga ijobiy ta'siri

Raqamli texnologiyalar o'smirlarning tafakkuri va bilim doirasini kengaytiradi.

- Kognitiv rivojlanish: Internet orqali bilim olish, interaktiv ta'lim, onlayn kurslar, ilmiy videolar o'smir tasakkurini faollashtiradi.
- Ijtimoiy ko'nikmalar: Ijtimoiy tarmoqlar muloqat madaniyatini rivojlantirish, do'stlik aloqalarini mustahkamlash imkonini beradi
- Ijodkorlik: O'smirlar raqamli vositalar orqali o'z qobiliyatini (dizay, musiqa, video montaj, kantent yaratish) rivojlantiradilar.
- Bilim va malaka: Internet va ilovalar orqali o'smirlar xorijiy tillarni o'rganadi va yangi bilimlar oladi.

3 Texnologiyalarning salbiy ta'siri

Shu bilan birga, haddan tashqari raqamli muhitga sho'ng'ish o'smirning ruhiy va ijtimoiy barqarorligiga salbiy tasir ko'rsatadi:

- Virtual qaramlik _ internet yoki o'yinlarga haddan ziyod berilib ketishi;
- Diqqat va xotira susayishi _ tezkor ma'lumot oqimi mantiqiy fikrlashni zaiflashtiradi;
- Hissiy beqarorlik _ "layk", "obunachi", "ko'rinishlar soni"ga bog'liq emotsional holatlar paydo bo'ladi;
- Real muloqotdan chetlashish _ virtual muloqot real ijtimoiy aloqalarni kamaytiradi.
- Ruhiy va emotsional holatga ta'siri: Ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt o'tkazish, boshqalar bilan o'zini tenglashtirish holatalari o'ziga bo'lgan ishonchsizlik, stress va depressiya hissini kuchaytiradi.
- Vaqtni samarasiz sarflash: O'smir foydalanuvchilar texnologiyada foydali maqsadda emas, balki o'yin, video kabi tarmoqlardan haddan ziyod foydalanishadi ularning esa oxiri yo'q.

Bular o'smir shaxsining identifikatsiya jarayonini, ya'ni "men kimman?" degan savolga javob topish bosqichini murakkablashtiradi.

4 Oila va ta'lim muhitining roli

Oila va maktab o'smirning raqamli hayotini to'g'iri yo'naltirishda asosiy rol o'ynaydi.

- Ota-onaning texnologiyalarga nisbatdan ongli munosabati va birgalikda vaqt o'tkazish madaniyati o'smirni internetdagi xavflardan himoya qiladi
- Pedagoglar raqamli vositalardan ta'limdan samarali foydalanib, o'quvchilarni tanqidiy fikrlash va raqamli madaniyatga o'rganish lozim.

Shunday yondashuv o'smirning shaxsiy rivojlanishini qo'llab _quvvatlaydi, texnologiyalarni foydali yo'nalishga buradi.

Xulosa

Zamonaviy texnologiyalar o'smir shaxsning psixologik shakllanish jarayoniga ikkiyoqlama ta'sir ko'rsatadi: ular bilim va tafakkur imkoniyatlarini kengaytiradi, biroq hissiy beqarolik va virtual qaramlik xavfini ham kuchaytiradi.

Shuning uchun o'smir shaxsini raqamli muhitda tarbiyalashda:

- Oila va maktabning psixologik hamkorligini kuchaytirish;
- Raqamli madaniyatni shakllantirish;
- Texnologiyalardan foydali va nazoratli foydalanishni o'rganish zarur.

Bu yo'l bilan texnologiyalar o'smir uchun xavf emas, balki rivojlanish vositasiga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. G'oziyev, E. G'. Ontogenez psixologiyasi. _ Toshkent :Nashir, 2010
2. Vygotskiy, L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. _ Moskva : Pedagogika, 1996
3. Prenskiy, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. On the Horizon, 9(5).
4. Valkenburg, P.M., & Peter, J. (2011). Online communication and adolescent well-being. Journal of Adolescence, 34(1).
5. Erik H. Erikson_ "shaxsiy identifikatsiya inqirozi. _ New York, W.W.Norton & . 1950